

2022-yil yanvar-avgust oylarida 20 yoshda nikoh qurganlar 51 025 nafarni tashkil etadi.

Shundan:

Ayollar:
49 272 nafar

Erkaklar:
1753 nafar

YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

#68 (16521)
2022-yil, 28-sentabr
chorshanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Gazeta 1925-yildan chiqib boshlagan

Yoshlar siyosati
2-bet

2132 oila
yarashtirildi

Dolzarb mavzu
3-bet

"Openbudget": ovozlar
sotib olinmasligi kerak

Birga o'qiyimiz!
7-bet

Qodiriy bilan
"Yolg'iz"



TASHABBUS OLIMPIADASI

KIBERSPORT MUSOBAQALARINING MAHALLA BOSQICHI QIZG'IN DAVOM ETMOQDA.

5-betga
qarang

2132 OILA YARASHTIRILDI

Afsuski, yosh oilalarning arzimagan sabablar bilan ajrashib ketishi, murg'ak qalblarning tirik yetim bo'lishi zamonaviy jamiyatda odatiy holga aylanib bormoqda.

2022-yilda oilaviy ajrimlar soni 23 foizga oshgan. Ya'ni 2022-yilning birinchi yarmida 20 798 ta oila rasman ajrashdi. Bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4700 taga ko'p degani. Xususan, sudlarning tegishli qaroriga asosan, 14 986 ta, o'zaro rozilik asosida 5812 ta ajrim holati qayd etildi. Hududlar kesimida ajrimlar bo'yicha **Andijon, Farg'ona, Namangan viloyatlari va Toshkent shahrida eng yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi.**

Andijon viloyatida joriy yilning 8 oyi davomida 3265 ta oilaviy ajrim qayd etilib, o'tgan yilgiga nisbatan 21 foizga oshgan. Ajrimlar Andijon shahrida – 707 ta, Asaka tumanida – 335, Andijon tumanida – 303, Izboskan tumanida – 262, Shahrixon tumanida 258 tani tashkil etgan. 1–5 yil davomida birga yashab ajrashganlar 1466 ta, 5 yil va undan ortiq birga yashaganlar orasidagi ajralishlar 1799 taga yetgan.

Ulug'bek QOBILJONOV,
Yoshlar ishlari agentligining Andijon viloyati boshqarmasi ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar bilan ishlash bo'limi mutaxassisi

“AHIL OILA” KUNI

Oilada er-xotinning huquq va majburiyatlari yuzasidan tug'ilayotgan bahslar, turmushning darz ketishi, o'zaro mojarolar, ajrimlar bugungi kunda jamiyatimizda jiddiy e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan masalalardan biridir. Ushbu masalalarga tegishli yechim topish maqsadida Yoshlar ishlari agentligi bir qator chora-tadbirlarni ko'rib chiqmoqda.

Jumladan, viloyatning barcha hududlarida haftaning har shanba kuni “Biz ajrimga qarshimiz!” shiori ostida “Ahil oila” kuni deb e'lon qilingan. Aksiya davomida oilalarni mustahkamlash bo'yicha davlat, nodavlat tashkilotlari, sektor rahbarlari hamkorligida olib borilgan ishlar natijasida o'tgan davr davomida oilaviy ajrim yoqasidagi oilalarning 2132 tasi yarashtirilib, 2319 nafar bolajonning o'z ota-onasi bilan yashashiga erishilgan bo'lsa, qonuniy nikohsiz yashayotgan 917 ta oilaning nikohi rasmiylashtirildi.

5136 NAFAR NIHOHLANUVCHI O'QITILDI

Shahar va tumanlardagi FHDYO organlarida yolg'iz onalikni belgilalaganlar jami 1365 nafar bo'lib, otalini belgilash holati 2626 nafar hisoblanadi. Oilaviy qadriyatlarini aholi ongiga chuqur singdirish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oilaning qonuniy asoslarini mustahkamlash, ajrimlarning oldini olish maqsadida mahalla fuqarolar yig'inlarida Oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash komissiyalari, “Keksalar maslahati guruhlari”, “Ota-onalar universiteti”, “Ayollar maslahat kengashi”, “Oqila ayollar harakati” kabi jamoatchilik institutlari tomonidan qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, har bir shahar va tumanda “Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlari faoliyati yo'lga qo'yilib, 5136 nafar nikohlanuvchi o'qitildi. Bu mashg'ulotlarga sektor rahbarlari va huquq-tartibot organlari vakillarini, nuroniylar va imomlarni jalb etishimiz o'z natijasini bermoqda.

“YOSH ONALAR KLUBI”

Yoshlar ishlari agentligining Andijon viloyati boshqarmasi ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar bilan ishlash bo'limi tomonidan ko'plab loyihalar amalga oshirildi. Respublika Defektologlar assotsiatsiyasi bilan hamkorlikda “Yosh onalar klubi” faoliyati yo'lga qo'yildi. Bundan ko'zlangan maqsad negiron farzandi bor onalarga ruhiy dalda berish va farzandlarini ijtimoiy hayotga moslashtirishga ko'maklashishdan iborat.



Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda “Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorining 8-bandiga muvofiq, viloyatlar hokimliklariga oila markazlarini barcha sharoitlarga ega xizmat xonalari bilan ta'minlash yuklatilgan. Andijon viloyatida ham 2 ta shahar va 14 ta tumanning oila va xotin-qizlar bo'limlari qoshida va hamkor tashkilotlar binolarida oila markazlari tashkil etilgan. Markazlarda nikohlanuvchilarga o'quv dasturlari asosida darslar o'tilmoqda.

Biroq bu markazlar boshqa tashkilotlarning binolaridan, mebel jihozlaridan foydalanib kelmoqda. Ularni tashkil etish, moddiy-texnik bazasi va mebel jihozlari bilan ta'minlashga tuman (shahar) hokimlari jiddiy e'tibor qaratishi lozim.

177

IMKONIYAT



TALIMGA YO'NALTIRILGAN TO'LOVLAR DAROMAD SOLIG'IDAN OZOD ETILADI



Soliq kodeksiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun yo'naltirilgan to'lovlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lashdan ozod etilgan.

Imtiyozni taqdim etish tartibi va muddatlari:

Jismoniy shaxslar soliq chegirmasini olish uchun ish beruvchiga daromadlarini o'qish uchun to'lovga (kreditni qoplashga) o'tkazish to'g'risidagi arizani quyidagi hujjatlarni ilova qilgan holda taqdim etadi:

- talaba (talabalar) bilan O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurti o'rtasida to'lov-kontrakt asosida o'qitish to'g'risida tuzilgan shartnoma (shartnomalar) nusxasi;
- tijorat banki bilan ta'lim kreditini olish uchun tuzilgan shartnoma (shartnomalar) nusxasi;
- ta'lim oluvchining (ta'lim oluvchilarning) pasporti va (yoki) tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomasi nusxasi.



“QO‘LLARIM ISHLAMASA-DA, TELEGRAM KANALLARDAN FOYDALANIB DAROMAD TOPYAPMAN”

Iqbol PARDAYEVA,
“Yoshlar ovozi” muxbiri

Yordamga muhtoj yoshlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan “Yoshlar daftari”ga bugunga qadar minglab yoshlar ro‘yxatga olinib, ular shu daftar yordamida o‘z biznesini yo‘lga qo‘ymoqda, bandligi ta‘minlanmoqda. Albatta, imkoniyatdan foydalanib yangi tadbirkorlarga aylangan har bir yoshga yo‘l-yo‘riq, maslahatlar zarur bo‘lishi shubhasiz. Bu boradagi ishlarda ham mahalladagi yoshlar yetakchilarining zimmasiga bir qator vazifalar yuklatilgan.



Shahnoza KO‘CHAROVA, Sherobod tumanidagi “Oltinvoha” mahallasi fuqarosi:

– 2022-yil fevral oyida mahallamizdagi yoshlar yetakchisi Rasul Choriyevga tadbirkorlik bilan

shug‘ullanishimni aytib, tikuvchilikni yaxshi bilishimni, mahalla binosidan xona ajratilsa, mahalla qizlari uchun o‘quv markaz ochish niyatim borligini bildirdim. Shundan so‘ng Rasul aka hokim yordamchisi bilan birgalikda mahalla binosidan ikkita xona ajratildi. Men esa mahallamizdagi xonadonlardan eski, ishlatilmayotgan tikuv mashinalarini yig‘ib kelib, o‘quv markazining faoliyatini boshladim.

Markazimizga buyurtmalar ham kela boshladi. Lekin

eski tikuv mashinalarida bu buyurtmalarni o‘z vaqtida yetkazib bera olmay qoldik. Shu bois Yoshlar ishlari agentligining viloyat boshqarmasiga murojaat qildim. Oradan bir-ikki kun o‘tib, 10 dona zamonaviy tikuv mashinasini, yetkazib berishdi. Shundan so‘ng bizning ishlari yurishib, daromadimiz ko‘paydi. O‘qib, hunar o‘rganish istagida kelgan qizlar ham daromad ola boshladi.

Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa‘dullayev bizning ish faoliyatimiz bilan ham yaqindan tanishdi. Ishimizdan juda xursand bo‘ldi. Men esa yoshlarga berilayotgan imkoniyatlardan minnatdor ekanimizni yetkazdim.

Xo‘sh, ular bu vazifalarni qay darajada uddalamoqda? Mahalladagi yoshlar yetakchilarining bugungi faoliyati bilan yaqindan tanishish, ular oldida paydo bo‘layotgan muammolarga yechim topish maqsadida **Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa‘dullayev Surxondaryo viloyatidagi mahallalarda bo‘lib, yetakchilar bilan suhbatlashdi.** Mahalla yoshlar yetakchilari tomonidan shakllantirilgan “Yoshlar balansini ko‘zdan kechirdi. Bu borada mahalladagi yoshlar yetakchilariga bir nechta tavsiyalar berilib, “Yoshlar daftari” ko‘magida tadbirkor bo‘lgan yoshlar bilan uchrashdi.

Bu uchrashuv yosh tadbirkor hamda mahalla yoshlari yetakchilariga nima berdi?



Jumageldi BO‘RIYEV, Termiz tumanidagi “Orol” mahallasi fuqarosi:

– O‘sha kuni kutilmaganda uyimizga Alisher Sa‘dullayev tashrif buyurdi. Shunday inson meni izlab keladi deb hech ham o‘ylamaganman. U kishi qo‘llarim ishlamasa-da, telegram kanallaridan foydalanib, daromad topayotganimni eshitib, izlab kelibdi. Men bilan uzoq suhbatlashdi. Keyin esa “Eski planshetingizni eng zamonaviy planshetga almashtirishni istarmidingiz?” – deb so‘radi. Va shu paytning o‘zida eng so‘nggi rusumdagi, zamonaviy ruchkali planshet sovg‘a qildi. Keyin esa menga 1 million so‘mlik ish taklif qildi.

Shunda men shu kichik jasoratim sabab ko‘pchilikning e‘tiboriga tushayotganimni his qildim. Demak, to‘g‘ri yo‘ldam. Bundan juda suyundim. Avallari odamlar menga achinib qaraydi deb o‘ylardim. Endi fikrim o‘zgardi.




Ahror ALLAMUROTOV, Termiz tumanidagi “Orol” mahallasi yoshlar yetakchisi:

– Mahallamizga kelgan Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa‘dullayevni birinchi navbatda qiziqtirgan jihat, bu shu kungacha qadar nechta yoshni “Yoshlar daftari”ga ro‘yxatga olganim va ularning qanchasiga yordam berganim bo‘ldi. Bizning mahallamizda 20 nafar yosh “Yoshlar daftari”ga ro‘yxatga olingan bo‘lib, ularning 19 nafariga yordam berganmiz. Mahallamiz “drayveri”, asosan, gilamchilik, chorvachilik hamda dehqonchilik hisoblanadi. Shu kungacha qadar 15 nafar qizlarimiz aynan gilamchilik yo‘nalishida ishga joylashgan bo‘lsa, bir na-

far yoshimiz “Yoshlar daftari”ga kiritilib, imtiyozli kredit asosida o‘z uyidan issiqxona qurib, dehqonchilikni yo‘lga qo‘ydi. Shuningdek, bir nechta yoshlarimizning kontrakt pullarining bir qismi hamda muddatli harbiy xizmat uchun shartnoma pullari subsidiya asosida to‘lab berildi.

Alisher Sa‘dullayevni qiziqtirgan yana bir jihat, mahallamizda nogironligi bor yoshlar, ular bugun nima bilan shug‘ullanayotgani bo‘ldi. Shundan so‘ng birgalikda mahallamizda istiqomat qilayotgan 1 guruh nogironi Jumageldi Bo‘riyevning xonadoniga yo‘l oldik.



Qudrat MAMATMURODOV, Bandixon tumanidagi “Obod turmush” mahallasi fuqarosi:

– Mahallamiz yoshlar yetakchisi O‘rol Shaydullayevga murojaat qilib, parrandachilik bilan shug‘ullanish niyatim borligini aytдим. Ular mening biznes rejam bilan tanishib, 30 million so‘mlik imtiyozli kredit ajratib berishdi. Bu mablag‘ga 1 ta 100 dona va ikkita 500 talik jo‘ja o‘chadigan inkubator xarid qildim.

Tadbirkorligimni 600 bosh parranda bilan boshlab, hozirgi kunda 5000 donaga yetkazdim. Oyiga 12,5 million so‘m sof daromad olyapman. Foydani ko‘paytirish maqsadida parrandachilikda zarur bo‘ladigan

uskunalar, masalan, yem tayyorlaydigan apparatlarni qo‘lbola qilib yasab olganmiz. Yem tayyorlaydigan apparatni ko‘chadan sotib olmoqchi bo‘lsangiz, 4 million so‘mga xarid qilasiz. Biz esa bu uni 250 ming so‘m evaziga yasab oldik. Yem qorib beradigan uskunaning narxi esa ko‘chada 12 million so‘m atrofida turadi. Biz 3 million so‘mga yasadik.

Hozir mahallamizning 15 nafar yoshlarini ish bilan band qilishga ko‘maklashdim. Faoliyatimizga mahalladagi juda ko‘p yoshlar qiziqish bildirmoqda. Parrandachilik qilish niyatidagi yoshlarga yetishtirayotgan jo‘jalardan 100 donadan tarqatayapmiz. Ularga bu borada qanday maslahatlar kerak bo‘lsa, erinmasdan borib o‘rgatib, yo‘l-yo‘riq berib kelyapman. Kelajakda bu biznesimni yanada kengaytirish niyatim bor.

SHUNDAY INSON MENI IZLAB KELADI DEB HECH HAM O‘YLAMAGANMAN.

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

Birgina Xo'jayli tumanidagi "Bayterek" mahallasida o'tkazilgan kibersport musobaqasida 87 nafar yosh ishtirok etdi. Baytereklik yoshlar olimpiadaning birinchi mavsumida ham faol qatnashgan. Tajriba kamligi pand berib, chorak finalda o'z ishtirokini yakunlashgan edi.



Mahalla yoshlarini bu mag'lubiyat sindirib qo'ygani yo'q. Ikkinchi mavsum uchun tajribali murabbiylar jalb etilib, puxta tayyorgarlik ko'ridi. Kibersport hammani birdek qamrab oldi. Xususan, ko'rishda nuqsoni bo'lgan Bobur Ametov ham bu musobaqani "begona qilmadi". U bahslarda barcha raqiblarini yengib, sektor bosqichiga yo'llanma oldi.

– "Dota 2" o'yini bolalikdan sevib o'ynayman, – deydi baytereklik Bobur Ametov. – Yoshlar yetakchisi Javlonbek Saparboyev kompyuter o'yinlariga qiziqishimni ko'rib, kibersport musobaqalarida ishtirok etishni taklif qildi. Raqiblarim bu o'yin bo'yicha yetarlicha

"DOTA 2" G'OLIBI

kuchga ega. Men yaxshilab harakat qildim va yakunda mahalla bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritdim.

"Besh tashabbus olimpiadasi"ning ikkinchi mavsumida "Milliy va zamonaviy cholg'u ijrochiligi" yo'nalishida ham musobaqalar bo'lib o'tmoqda. Asl san'atkorlar yurti bo'lgan Xorazmda ham milliy va zamonaviy cholg'u ijrochiligi bo'yicha belashuvlar ko'tarinki ruhda tashkil etildi.

Yangiariq tumanidagi "Qo'riqtom" mahallasi yoshlar yetakchisi Shohrux Madrahimov yoshlarni milliylik atrofida birlashtira oldi. 53 nafar yosh dutor va doira cholg'ulari bo'yicha bahslashib, o'z mahoratini ko'rsatdi. Yakunda dutor yo'nalishi bo'yicha Donoxon Bekmurodova, Mohinabonu Sodiqova, Asad Abdullayev va Donoxon Komiljonova, doira yo'nalishida esa Shamsiddin Farhodov hamda Javohir Ibragimov "Besh tashabbus olimpiadasi"ning sektor bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

– Musiqa insonning eng nozik tuyg'ularini, his-hayajonini, in-

sondagi boy emotsiya zaxiralari ishga solishga qodir mo'jizali quroldir, – deydi dutor yo'nalishi bo'yicha g'olib bo'lgan Donoxon Bekmurodova. – Men shu qurolim bilan mahalla bosqichida g'olib bo'ldim.

Xorazmlik sozandalar namuna qilib ko'rsatishga arziydi. Ular ancha murakkab kuylar ijro etdi. Yosh sozandalar mahoratidan xulosa qilish mumkinki, yoshlar "Besh tashabbus olimpiadasi"ning navbatdagi bosqichlari ham juda qiziqarli o'tishini va da qilmoqda.



Imkoniyating cheksiz!

ASL BAXT SHUKRONALIKDA



Insonlar hayotni murakkab deb biladilar va o'zaro munosabatlardagi adolatsizliklar uchun umridan voz kechishga ham tayyor bo'ladi. Aslida esa insonga berilgan imkoniyatlar chegarasiz, agar xohish bo'lsa, ko'p narsaning imkoni bor. Afsuski, aksar insonlar baxt muvaffaqiyat, pul va shon-shuhratda emasligini kech anglab yetadi. To'kis baxt shukronalikda ekanini bilishmaydi.

O'zini boricha qabul qila olgan, imkoniyatlaridan unumli foydalanib, ko'pchilikka o'rnak bo'la oladigan Xorazm elining suyuqlik farzandi – 24 yoshli Nilufar Ahmedova ham chegarasiz imkoniyatlar egasi. Nilufar para-suzish bo'yicha O'zbekiston chempioni, "O'zbekim ayoli – 2020" milliy mukofoti hamda "Shuhrat" medali sohibi.

U bu yil Urganch davlat universitetining pedagogika fakulteti psixologiya yo'nalishini tamomladi. 2017-yildan Xorazm viloyati Yoshlar markazining inklyuziv ta'lim to'garagi rahbari bo'lib ishlagan. Hozir Yoshlar ishlari agentligining Xorazm viloyati boshqarmasi qoshidagi inklyuziv ta'lim markazi inklyuziv ta'lim koordinatori bo'lib faoliyat yuritmoqda.

Nilufar o'zi kabi insonlarga, yoshlarga ham ustoz, ham do'st, maslahatdosh. Ular bilan bir oiladek harakat qiladi. Nilufarga "Shogirdlaringiz bilan ishlab qiyalmaysizmi?" – deb savol berganimizda "Yo'q, ular mening oilam kabi bo'lib qolgan", degan javobni oldik. Aslida ustoz uchun har bir o'quvchi uning farzandidek yaqin. Ammo ular bilan birgalikda harakat qilish, deyarli har biri bilan alohida shug'ullanish katta matonat talab qiladi. Nilufar faoliyati davomida maktab yoshiga yetmagan 30-40 nafardan ko'proq yoshlarga yozish, chizishni o'rgatib, ularni maktablarga yo'naltirdi.

Ba'zi yoshlarning telefon, vaqtni oladigan o'yinlar bilan bandligini ko'rib, Nilufar bilan suhbatdan so'ng uni o'rnak qilib ko'rsatgimiz keldi. Yashash uchun, bilim olish uchun motivatsiya qidirib internetni titib turli treninglar qidiramiz, falon pulga kursga yozilib, motivatsiya olishga harakat qilamiz. Nilufardagi shukronalik hissini ko'rib, "Inson har kuni tongda ko'zlarini ochishi bir motivatsiya", degimiz keldi.

Mashhura NASRIDINOVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

GAZETAMIZDA YANGI LOYIHA!

Sevimli nashringiz – "Yoshlar ovozi" gazetasining elektron kontentdagi sahifalari yangi loyihalar bilan boyimoqda.

Jumladan, mahalladagi yoshlar yetakchilari faoliyatida qo'l keladigan, uslubiy jihatdan foydali "Yetakchiga maslahat" loyihasining ilk sonida Yoshlar ishlari agentligining Mahalladagi yoshlar yetakchilari bilan ishlab boshqarmasi boshlig'i Sherzod Olimov bilan intervyu tashkil etildi.

QR-kodni skanerlang va mutaxassis bilan dolzarb mavzudagi suhbatni tomosha qiling. Bu loyiha respublikamizdagi barcha yoshlar yetakchilariga birday manfaatli bo'lishiga ishonamiz!

Shuningdek, gazetamizning You Tube sahifasida muvaffaqiyatga erishayotgan yoshlarning tajribalari ham o'rin olgan. Tengdoshlaringiz fikri qiziq bo'lsa, albatta, bizni ijtimoiy tarmoqlarda ham kuzatib boring!



NODAVLAT OTM ABITURIYENTNING

Shahribonu RAHMATOVA,

"Yoshlar ovozi" muxbiri

SO'NGGI TANLOVIMI?

2022/2023-o'quv yili uchun oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga kirish imtihonlarida qatnashish uchun 1 146 744 nafar abituriyent onlayn ro'yxatdan o'tgan. Test sinovi natijalariga ko'ra, 190 375 nafar abituriyent talabalikka tavsiya etildi. Ularning 176 ming nafardan ziyodi umumiy qabul parametrlari doirasida o'qishga qabul qilingan bo'lib, 83 006 nafari (47 foiz) birinchi ta'lim yo'nalishiga, 93 341 nafari (53 foiz) ikkinchi-beshinchi ta'lim yo'nalishlariga talabalikka tavsiya etilgan.



Bundan ko'rinmoqda-ki, agar abituriyentlar oldingidek faqat bit-ta ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirganida ularning yarmidan ko'pi talabalikka tavsiya etilmagan bo'lar edi.

O'rtaacha o'tish bali davlat granti asosida erkaklarda - 114,98 balni, ayollarda - 127,21 balni; to'lov-kontrakt asosida esa erkaklarda - 90,92 balni, ayollarda 101,94 balni tashkil etgan.

Endilikda yoshlar bilim darajasiga qarab o'qishga kiryoapti: 150 ball to'plagan talaba o'qishga kirolmay, 100 ball to'plaganlar talaba bo'ladigan zamonlar o'tib ketdi.

Afsuski, barcha abituriyentlar ham ko'zlagan maqsadiga yetolmaydi. Nodavlat oliy ta'lim muassasalari esa davlat oliy ta'lim muassasalariga qabul qilinmagan talabgorlarning joniga oro kirmoqda. Chunki hech kim yana bir yil vaqtini yo'qotishni istamaydi. Bugungi kunda **Ta'lim inspeksiyasi tomonidan 53 ta nodavlat oliy ta'lim tashkiloti faoliyati litsenziyalangan bo'lib, ularning 32 tasi Toshkent shahrida, qolganlari viloyatlarda joylashgan.**

Nodavlat oliy ta'lim muassasalari ham xalq orasida katta obro'ga ega. Ayniqsa, Singapur menajmentni rivojlantirish instituti, Turin politexnika universiteti, Yeodju texnika instituti, Inha, Akfa universitetlariga ko'pchilik o'quvchilar ikkinchi imkon emas, orzu sifatida qarashadi. Nodavlat oliy ta'lim muassasalaridagi sharoitlar va ta'lim tizimi davlatnikidan farqlanadi. Ko'pchilik yoshlarga ularning erkin dasturi ma'qul bo'ladi. Lekin tan olish kerakki, barcha muassasalarda ham o'qitish jarayoni a'lo darajada yo'lga qo'yilmagan, ayniqsa, yangi ochilgan OTMlarda.

Joriy yil nodavlat oliy ta'lim muassasasiga qabul qilingan talaba bilan suhbatlashdik. U bundan oldin Termiz, Jizzax, Chirchiqdagi davlat universitetlarining tarix fakultetiga hujjat topshirgan. Lekin 129 ball to'plab kira olmagan. Shu bois Toshkent amaliy fanlar universitetini tanlagan.

- Avval universitetga onlayn hujjat topshirdim. Bunda pasport,

attestat va shaxsiy ma'lumotlarni kiritdim. Oradan 20 kunlar o'tgach onlayn imtihon bo'ldi va u 20 ta mantiqiy savoldan iborat edi. Imtihon jarayonini hech qanday kamerada kuzatishgani yo'q, lekin yarim soat vaqt berishdi. Keyin menga o'qishga qabul qilinganim haqida xabar keldi, ammo to'plagan balim haqida hech qanday ma'lumot yo'q. Shunchaki, kontrakt to'lashim uchun havola tashlab berishdi, - deydi u.

Hamsuhbatimiz bunday tartibdagi imtihon jarayonida bemaol kimningdir yordamidan yoki internetdan foydalanish mumkinligiga amin bo'lgan. Shu o'rinda bizda jarayonga nisbatan hayrat paydo bo'ldi. Chunki biz davlat OTMga kirish imtihonlaridagi qattiq tizimga, nafas olmay va tovush chiqarmay, eng asosiysi, hech kimdan yordam olmay bajariladigan test tizimiga ko'nirikib qolganmiz. "Bizda kirish qiyin, o'qish oson. Xususiyda kirish oson, o'qish qiyin", degan fikr miyamizga o'nashib ulguragan. Bunday tizim orqali ular abituriyentlarning bilimi haqida qanchalik to'g'ri xulosa chiqara olishadi? Karra jadvalini bilmaydigan o'quvchining imtihon jarayonida hech kimdan yordam olmasligiga kim kafolat beradi?!

"Kontraktni to'lasa bo'ldi, o'qishga borish shart emas", degan gaplar qulog'ingizga chalinganmi? Ha, bunday fikrlar aynan nodavlat oliy ta'lim muassasalari talabalari tomonidan aytiladi.

Davlat va nodavlat ta'lim muassasasining diplomi bir xil qiymatga egami o'zi?

Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi axborot xizmati rahbari **Shavkat Xo'jaqulov** shunday deydi: "Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan litsenziya berilgan nodavlat oliy ta'lim muassasalarining diplomi davlat oliy ta'lim muassasalari diplomi bilan bir qatorda tan olinadi. Bu "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 31-moddasida belgilangan. Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilariga ham davlat namunasidagi diplom berilishi belgilab qo'yilgan.

Litsenziya shartlarini ko'rib, ushbu oliy ta'lim xizmatlaridan foydalanish mumkin".

Litsenziyasi borligi va uning haqiqiylikini qanday tekshirish mumkin? Soxta oliy ta'lim muassasasi deganda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasidan litsenziya olmagan, ushbu muassasani tashkil etish bo'yicha Vazirlar Mahkamasi yoki Prezident qarori qabul qilinmagan, normativ-huquqiy hujjatlari mavjud bo'lmagan oliy ta'lim muassasalari tushuniladi. Bunday ta'lim muassasalaridan o'qishni ko'chirishning imkonini yo'q va ularning diplomi ham tan olinmaydi.

Abituriyentlar o'zi o'qishni istagan **OTMning soxtaligini Ta'lim inspeksiyasining rasmiy veb-sayti orqali bilishi mumkin.** Unda nodavlat OTMning ro'yxati joylashtirilgan va manzili, telefon raqami, yo'nalishlari ko'rsatilgan bo'ladi. Yana bir usuli esa nodavlat ta'lim muassasasining litsenziyasiga qo'yilgan QR-kodni skanerlash orqali. Agar haqiqiy bo'lsa, u hukumat portaliga kiradi va yerdaham litsenziyani ko'rish mumkin.

Ogohlilik uchun aytib o'tish joizki, 2021-yilning dekabr oyida 3 ta, joriy yil mart hamda may oylarida esa bittadan, jami 5 ta soxta OTM aniqlangan. Agar fuqarolar shu kabi holatlarga duch kelsa, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilishlari kerak.


Bilim olish istagida bo'lgan inson joy tanlamaydi, ya'ni qanday bo'lmasin o'rganadi. Muhimi, ta'lim muassasasi talabalarning hayot yo'lida muvaffaqiyatga erishishiga, yaxshi mutaxassis bo'lishiga ko'maklashishi zarur.

“
TA'LIM SIFATINI NAZORAT QILISH DAVLAT INSPEKSIYASI TOMONIDAN LITSENZIYA BERILGAN NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARINING DIPLOMI DAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARI DIPLOMI BILAN BIR QATORDA TAN OLINADI.



QODIRIY BILAN “YOLG‘IZ”

Loyiha muallifi: **Ziyoda RAHIMBOYEVA**



Kitobsevar yoshlar qiziqishiga sabab bo'lgan, mutolaani targ'ib etish va haqiqiy kitobxon yoshlarni kashf qilayotgan "Birga o'qiyimiz!" loyihasining 9-soni e'tiboringizga havola etilmoqda.

Bugun yozuvchi va jurnalist Xurshid Do'stmuhammad qalamiga mansub "Yolg'iz" qissasi bilan tanishamiz!

“MEN YOLG‘IZMAN, OVOZIM YOLG‘IZ”...

Yolg'izlik turlicha bo'ladi, atrof-dagi yaqinlaringiz, o'zingiz yoqtirgan va yoqtirmagan insonlardan oradagi uzoq masofa sabab ajralish, jisman yolg'iz qolish boshqa bir masala, yon-atrofigiz to'la odam bo'la turib, ruhan yolg'iz qolish, o'zini yakkalanib qolgandek his etish butunlay boshqa holat.

"Yolg'iz" deb nomlangan bu kitob yuqoridagi ikki holatga ham xos emas, chunki asar asrlar o'tsada, takrorlanmaydigan noyob iste'dod, yoniq yurak va o'limgan ham qaytmas shijoat egasi – Abdulla Qodiriy haqida!

Xalqini ozod va baxtli ko'rish uchun kurashgan millat oydinlari orasida Qodiriy nomi "yarq" etib ko'zga tashlanadi. So'nggi yillarda Qodiriy siymosini jonlantirish, yoshlarga yaqindan tanitish uchun har tomonlama ishlar amalga

oshirildi. Badiiy adabiyotimizda ham aniq faktlar, arxiv hujjatlariga asoslangan bir qancha adabiyotlar yaratilib, kitobxonlarga taqdim etilmoqda. Shular orasida o'ziga xos uslubi bilan ajralib turuvchi qissa hajm jihatdan kichik, oson o'qiladi, kitobxonni chuqur o'ylantirib qo'yadi, Qodiriy qaytadan tanigandek, kashf etgandek taassurot uyg'otadi...

93 YIL MUQADDAM

2019-yil dunyo yuzini ko'rgan asar har bir o'quvchini moziyga – 93 yil muqaddam maxfiy, aniqrog'i, "imi-jimida" bo'lib o'tgan fitnalarga to'la mash'um voqealar sari yetaklaydi. Haqiqatni aytish har qanday davrda ham oson bo'lmagan. Asarda yozilganidek, "Haqiqat oldida bo'yin egish tavsadir, o'zgasi g'ovdir".

Tom ma'noda, g'ovlarga emas, haqiqatga tavba qilgan millatparvar yozuvchi uchun shaxsiy va ijodiy hayotida mashaqqatli kechgan davr – 1926-yilning ruhiyatida qanday iz qoldirganini his etish uchun ham qissani mutolaa qilish lozim. "Yig'indi gaplar" maqolasining yozilishi ortidan qamoqqa olinib, bir muncha vaqt o'tgach ozodlikka chiqqan adibning butun ijodiy yo'lidagi qiyinchiliklari jonli aks etgan qissadagi ayrim obraz-

lar uning naqadar tahlilali davra yashaganini yanada yaxshiroq tasavvur etishda ko'maklashadi. Asarda qamoqdalik vaqtida Qodiriy bilan hamxona bo'lgan "Indamas", "Ilon" laqabli kimsalarni bunga yorqin misol qilishimiz mumkin.



“YOLG‘IZ”DAGI HAQIQATLAR

"Ovsar" taxallusi bilan yozilgan "Yig'indi gaplar" maqolasi "Mush-tum" jurnalining 1926-yil 25-fevralda chop etilgan 2-sonining 2-3-betlaridan joy oladi.

Qodiriyning O'zbekiston jinoyat qonunlari majmuasining "Aksil-qilibochi...", "Rahbar xodimlarni

obro'sizlantirish..." moddalarini bilan qoralanishi, jinoiy ish qo'zg'atilib, uch oylik so'roq-tergovdan so'ng O'zbekiston Oliy Sudi tomonidan sudlanishi, sudda o'zini oqlab, uz-namo ma'ruza so'zlashga majbur qilgan ushbu maqolani o'qigan in-sonning xayolida ilk bor "Chindan ham boshqalarni obro'sizlantirish maqsadida yozilgan", degan taas-surot uyg'onishi mumkindek.

Bu borada qissaga yozilgan so'zboshi muallifi Shuhrat Rizayev fikrlariga e'tibor qaratishimizning o'zi kifoya:

"Nima, "Yig'indi gaplar"ni Julqun-boy o'zining Yo'ldosh Oxunboboyev yo Akmalcha (Akmal Ikromov – Sh.R.) lardan shaxsiy alami borligi uchun yozganmi?!". "Sho'rlik Qodiriy... yangi zamon, yangi matbuot, yangi tartiblar so'zga erk beradi deb xomtama bo'lgandimi? Akmalcha-yu, Yo'ldosh Oxunlar xalq ichidan chiqqan "ota"lar-ki, tanqidni to'g'ri tushunib, jamiyat dardlariga aniq tashxis belgilaydi, ularga madadkor bo'laman, ko'machi bo'laman, degan andishada yozil-gandi-ku "Yig'indi gaplar".

Aziz kitobxonlar, ushbu kichik qissa mutolaasidan yangi-yangi haqiqatlarni kashf etasiz!

Endi navbatni qissa haqidagi savollarga bersak. Loyihamizning asosiy maqsadi ham sizni kitob mutolaa qilishga undash va savollar bilan bilimingizni sinashdan iborat.

SAVOLLAR:

1. Yozuvchi qissani Qodiriyning necha yillik tavalludiga bag'ishlagan?
 2. Qodiriyning "Mush-tum" tahririyatidagi hamkasblarini sanang.
 3. "Xalq biladi, aytadi..." jumlaning davom ettiring va kimga tegishli ekanini toping.
 4. Belskiy Qodiriyning "Mush-tum"dagi "jinoiy faoliyati" bilan shug'ullani-shni qaysi tergovchiga topshirdi?
 5. Qissada Qodiriy o'zi yaratgan qaysi obrazga nisbatan e'timodi o'zga-cha ekani tasvirlanadi?
- "Yolg'iz" qissasi asosida tuzilgan savollarga javobingizni joriy yilning **5-oktabr sanasiga qadar Yoshlar-ovozi@mail.ru pochta manziliga yo'lashingiz mumkin.**

G'olib ishtirokchini tahririyatning maxsus sovg'asi kutmoqda. Mutolaa-ga shoshiling!

BOTULIZMDAN EHTIYOT BO'LING!



Botulizm tayoqchalari tabiatda keng tarqalgan bo'lib, tuproq, suv, hayvon va baliqlar ichig'ida uchraydi. Qobiq ichida yillar davomida saqlanadi. U havosiz muhitda ko'payadigan va kuchli zahar ishlab chiqaradigan mikroba bo'lib, sabzavotlarni konservalaganda ular uchun qulay muhit yuzaga keladi.

Uy sharoitida konserva mahsulotlarini tayyorlashda yetarli issiqlik va bosim hosil qilishning iloji yo'qligi sababli, ovqatdan zaharlanishning og'ir shakli – botulizm kasalligi kelib chiqadi.

Kasallikning oldini olish uchun uy-sharoitida sabzavot va mevalardan konserva mahsulotlarini tayyorlamang. Savdo shoxobchalaridan konservalangan mahsulotlar xarid qilishda ularning sifat sertifikatini surishtiring.

Javohir RAHIMOV,

Mirobod tumani FVB FVDT va FMFTE, XT bo'linmasi boshlig'i, katta leytenant

GAZETA

Shahribonu RAHMATOVA
tayyorladi.

Hozir ushbu maqolani o'qiyapsizmi, demak, qo'lingizda gazetamizning 68-soni turibdi. "Yoshlar ovozi" gazetasi, shu bilan birga, barcha gazetalarining qachon, qay tarzda paydo bo'lgani haqida hech o'ylab ko'rganmisiz?

Gazeta italyancha "gazzetta" so'zidan olingan bo'lib, "chaqa pul" degan ma'noni anglatadi. Gazeta kundalik voqealar to'g'risida materiallar e'lon qilinadigan davriy (vaqtli) bosma nashr, ommaviy axborot va targ'ibotning asosiy vositalaridan biri. Uning vazifasi jamiyatning axborotga bo'lgan ehtiyojini, ma'naviy intellektual talablarini qondirishdan iborat.

"LA GAZZETTE"

Gazeta ilk bor Rimda miloddan avvalgi I asrda (varaqa va byulleten shaklida), Xitoyda VII asrda ("Di bao" - "Poytaxt axboroti" nomi bilan) chiqqan. Gazetalarning siz va biz mutolaa qiladigan hozirgi ko'rinishdagi turlari esa XVI-XVII asrlarda Yevropada paydo bo'lgan. Ularni shaxslar, aksariyat matbaachilar, noshirlar, pochta xodimlari nashr qilgan.

Ilk gazetalar haftada va 15 kunda bir marta chop etilib, kam nusxada bo'lgan. Ularda asosan saroy yangiliklari, tijorat xabarlarini bosilgan. XVI asrda Venetsiyada yozma axborotlar uchun "gazetta" degan chaqa pul to'lashgan. 1631-yilda Parijda qirol Lyudovik XIII (1586-1653)ning shaxsiy shifokori va yilnomachisi Teofrast Renodo parijlik kitobfurushlar Lui Vandom va Jan Marpen bilan birgalikda "La Gazette" nomli vaqtli bosma nashrni tashkil etadi. "Gazeta" termini shu nashr tashkil qilinish gach ommalashgan.

Gazetachilik XVIII asrdan e'tiboran, ayniqsa, Angliya, Germaniya, Fransiya, Italiya, AQShda taraqqiy qila boshladi va bu mamlakatlarda ko'plab ijtimoiy-siyosiy yo'nalishdagi kundalik gazetalar paydo bo'ldi.

O'ZBEKISTONDA MATBUOT TARAQQIYOTI

XIX asrning 70-yillaridan "Turkestanskiye vedomosti" gazetasi chiqa boshlashi Turkistonda davriy matbuotning ibtidosi bo'ldi. Unda o'lka tarixi, madaniyati, geografiyasi, etnografiyasi, sanoati va boshqalarga oid maqolalar bosilgan. Shu bilan bir vaqtda o'zbek tilida "Turkiston viloyatining gazetasi" ham nashr etila boshladi.

1917-yilgacha Turkistonda bu ikki gazetadan tashqari turli vaqtlarda o'zbekcha va ruscha (ba'zan qirg'iz va tojik tillarida) 100 dan ortiq gazeta chiqqan. Ular asosan savdo, sanoat markazlari - Toshkent, Samarqand, Ashxobod, Qo'qon, Andijon, Farg'ona va boshqa shaharlarda nashr etilgan.



“

"TARAQQIY" GAZETASINING 1-SONI
CHIQQAN 27-IYUN (1906) SANASI
YURTIMIZDA - MATBUOT VA
OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI
XODIMLARI KUNI SIFATIDA
BELGILANGAN (1993).

XX asr boshida taraqqiy-parvar o'zbek ma'rifatchilari nashr qilgan "Taraqqiy", "Xurshid", "Shuhrat", "Buxoroyi Sharif", "Samarqand", "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona", "Najot", "Farg'ona nidosi", "Turk eli", "Hurriyat", "El bayrog'i" kabi gazetalar milliy gazetachilik tarixida munosib o'rin egallaydi. Ularda milliy taraqqiyot muammolari o'z ifodasini topgan. Ayniqsa, "Taraqqiy" birinchi bor erkinlik, tenglik g'oyalari ilgari surdi, jadalarning qarashlariga moslashib, istiqlolning ma'naviy zaminini masalasiga katta e'tibor berdi. Shuning uchun ham "Taraqqiy" gazetasi 27-iyun (1906) sanasi yurtimizda - Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni sifatida belgilangan (1993).

YANGI VA OG'IR DAVRLAR

O'zbekiston mustaqillikka erishgach gazetalaridagi mafkuraviy yakkahokimlik tugadi. Gazetalar o'z siyosiy yo'nalishini, mazmun-mohiyatini tubdan o'zgartirdi. Ayrimlarining nomi ham o'zgardi.

2022-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, respublikamizda faoliyat yuritgan gazetalar soni 592 tani tashkil etgan. Afsuski, ular soni munta-

zam kamayib bormoqda. 2018-2019-yillar o'zbek matbuoti uchun og'ir bo'lgan - bu davrda 129 ta nashr o'z faoliyatini to'xtatgan, 2019-2020 yillar yakunlarida esa yana 94 ta gazeta yopilgan ma'lum qilingan.

SEVIMLI GAZETAMIZ

"Yoshlar ovozi" 1925-yil 8-fevraldan haftada 1 marta (8000 nusxada) chiqa boshlagan. 1929-30-yillarda Samarqandda nashr etilgan. 1929-1935-yillar nomuntazam, 1936-1966-yillarda haftasiga 3 martadan chiqqan. Gazetamizning shakllanishida tashkilotchilardan Vladimir Glazkov, Ergash Bayxonboyev, qalamkashlar: Komiljon Alimov, Ayub A'zamov, Ziyo Sayd, Abdulalom Niyozov hamda o'zbek erlar bilim yurtining talabalari va boshqa ijodkorlarning hissi katta bo'lgan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida gazetaning chiqishi vaqtincha to'xtatilgan. 1946-yildan yana nashr etila boshlagan. "Yoshlar ovozi"ga turli davrlarda Bois Koriyev (Oltoy), Akmal Po'lat, Sotvoldi Yo'ldoshev, G'ani Jahongirov, Abdulazal Vahobov, Rustam Shog'ulomov, To'laqin Qozqoboyev, Jabbor Razzoqov, G'afor Hotamov, Abdugadir Niyozov, Salim Ashur, Faxriddin Karimov va boshqalar muharrirlik qilgan.

Gazeta ("Yosh Leninchi") 1992-yil 1-yanvardan "Turkiston" nomiga o'zgartirildi. 2017-yil 2-avgustdan "Yoshlar ovozi" nomi bilan chop etilmog'ga. Gazetamizda O'zbekiston yoshlari bilan bog'liq muammolar, ular erishgan yutuqlar, yoshlar yetakchilari haqida maqolalar va yoshlarbop loyihalar berib boriladi. Adadi 10525 ta.

Gazetamiz barcha ijtimoiy tarmoqlarda o'z sahifasiga ega. Telegram va YouTube sahifalarimizda ommaviy va qiziqarli mavzudagi video va boshqa loyihalar tashkil etilgan. Shu o'rinda aytilib o'tishimiz lozimki, an'anaviy gazetalarining video, audio va boshqa zamonaviy kontentlar tayyorlashi ilk bor "Yoshlar ovozi" gazetasi joriy etilgan. Gazetaning Buxoroda tayyorlangan maxsus soni sabab o'zbek matbuoti tarixidagi ilk ko'chma tahririyat ham "Yoshlar ovozi" bo'lgan.

Gazetalar har qanday davrda ham ma'lumot olish uchun ishonchli manba bo'lib qolaveradi. Zamon talabiga moslashgan, tezkor, qalplardan chiqa olgan gazetalar doim o'z mustahkamlariga ega bo'ladi.

YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
Hamza ABDULLAYEV

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
Sardor SA'DULLAYEV

Musahhihlar:
Rashid XO'JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100063, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (7) 233-22-16, (7) 236-79-95.

"Shara" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi - 2 bosma taboq. Korxonalar manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indeksler: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-955, Adadi - 10525. Bosilishga topshirish vaqti - 21.00. Topshirildi - 20.00

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



123458